

## HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MADANIYAT

**Qutlimuratov Farxad Kalbayevich**

*Qoraqalpoq davlat universiteti  
“Jinoiy-huquqiy va fuqarolik huquqiy fanlar”  
kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar nomzodi.*

**Egamberdiyev Dilmurod Elmurod o'g'li**

*Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti  
Yuridika fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash faoliyati va boshqa yuridik hodisalarga o'ziga xos umumbashariy madaniyat yutug'i sifatida qarash mumkin bo'lib, ularni ifodalash uchun huquqshunoslikka maxsus tushuncha kiritilgan. Mazkur maqolada esa huquqiy ong kategoriyasi huquqiy voqelikning alohida o'lchovini ifoda etuvchi ana shunday tushuncha sifatida xizmat qilishi, uni yurtimiz fuqarolarining erkinligi, birodarligi, xalqlar va millatlararo do'stligi, insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishida yaqqol ifodasini topayotgani chuqur yoritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *huquq, yuridik, ijtimoiy mafkura, axloqiy javobgarlik, ruhiyat, muhofaza, tarbiya, muhtoj, kategoriya, jamiyat, bunyodkorlik, insonparvarlik.*

Huquq ma'naviy hayot hodisasi sifatida ijtimoiy ong sohasiga mansubdir. Huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash faoliyati va boshqa yuridik hodisalarga o'ziga xos umumbashariy madaniyat yutug'i sifatida qarash mumkin bo'lib, ularni ifodalash uchun huquqshunoslikka maxsus tushuncha kiritilgan. Huquqiy ong kategoriyasi huquqiy voqelikning alohida o'lchovini ifoda etuvchi ana shunday tushuncha sifatida xizmat qiladi. Huquqiy ong jamiyat va davlatda serqirra hayotiy jarayonlarning barchasini tartibga solishga faol ta'sir ko'rsatadi, ommani bunyodkorlik ishlariga safarbar etadi, jamoat tartibini saqlash va mustahkamlashga ko'maklashadi. Jamiyat huquqiy ongining yuqoriligi, fuqarolarning qonunga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishi demokratik davlatning, siyosiy va huquqiy tizim samarali amal qilishining garovidir.

Huquqiy ong ijtimoiy ong turlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy ongning turli shakllari mavjud bo'lib, odamlar ular yordamida atrof-tabiatchilikni, jamiyatni keng ma'noda anglaydilar. Siyosiy, axloqiy-ma'naviy, estetik, etik, diniy, huquqiy ong mavjud. Ammo real hayotda ko'pgina vaziyatlarga, shart-sharoitlarga faqatgina huquq, majburiyat, mas'uliyat nuqtayi nazaridan qaraladi. Huquqiy ong, birinchi navbatda, huquqni, odamlarning ham amaldagi, ham idealdagi huquqqa nisbatan munosabatini ifoda etuvchi tasavvurlar va his-tuyg'ular yig'indisidir.[2] Huquqiy ong jamiyat a'zolarining huquq haqidagi, ijtimoiy hayotda real mavjud bo'ladigan huquqiy hodisalar haqidagi qarashlari, tasavvurlari, hissiyotlari, baholashlari, ruhiy munosabatlari yig'indisidir.

Huquq ijtimoiy hodisa sifatida ongdan tashqarida mavjud bo'la olmaydi. U haqiqiy voqelikning boshqa barcha hodisalari kabi jamiyat ongida aks etib, nafaqat uning in'ikosi, balki bilish quroli yoki usuliga aylanadi. Ushbu murakkab ruhiy sohada kechadigan fikrlash va tafakkur jarayoni huquqiy haqiqatning ongdagi aksini tushunib yetish va huquq haqidagi bilimlarni shakllantirish bilan bog'liq. Huquq va ong o'rtasida vujudga keladigan uzviylikni nazarda tutib, avvalo, huquqiy ong tushunchasini oydinlashtirib olish lozim. Huquqiy ong deganda, kishilarning huquq haqida tushuncha va bilimlarga ega bo'lishi, shuningdek, huquq borasidagi tasavvurlarning inson ongida aks etishi tushuniladi. Huquqiy ong ijtimoiy ong shakllaridan biridir. Demak, u ongning yagona shakli emas. Huquqiy talabni tushunishda, huquqiy bilim darajasi, yangiliklardan xabardorligi, umumiy va huquqiy madaniyatning saviyasi shubhasiz katta ahamiyatga egadir.

Huquq qanday fe'l-atvor shaklida (qonuniy yoki qonunsiz) amalga oshirilmasin, u barcha hollarda, avvalo, insonning ongiga qaratilgan bo'lib, u orqali fe'l-atvorni tartibga solishga ta'sir ko'rsatiladi. Huquq va huquqiy ongning yuqoridagidek o'zaro ta'sirida, shu murakkab ijtimoiy hodisaning ijtimoiy munosabatlarga ta'sir kuchi va tartibga soluvchi ta'sirining mohiyati namoyon bo'ladi. Huquqiy ongning asosiy tarkibiy elementlari huquqiy ruhiyat (psixologiya) va huquqiy mafkura (ideologiya). Huquqiy ruhiyat (psixologiya) - bu alohida ijtimoiy guruh shaxs yoki butun jamiyatda stixiyali ravishda vujudga keladigan huquqiy tuyg'ular, hissiyotlar, kayfiyatlar, fikrlar yig'indisidan iborat bo'lgan huquqiy ongning tarkibiy elementi. [1] Huquqiy ruhiyat jamiyatdagi mavjud huquqiy muhitning bevosita ta'siri ostida vujudga keladi va huquqiy ongning boshlang'ich pog'onasi hisoblanadi. Huquqiy ongning aynan shu darajasidan huquqiy reallikni anglash u bilan dastlabki tanishuv boshlanadi. Huquqiy mafkura (ideologiya) bu muayyan ijtimoiy guruhlarning jamiyatning huquqiy qarashlari g'oyalari, tasavvurlari va talablarning ilmiy tizimlashtirilgan ifodasidir. Huquqiy mafkura g'oyalar, konsepsiyalar, huquqiy tamoyillar huquqni rivojlantirish istiqbollari baholash, huquqiy aktlarni qabul qilishning maqsadlari vazifalari ko'rinishda namoyon bo'ladi.

Hozirgi jamiyatning asosiy huquqiy tamoyillari sirasiga mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda fuqarolarning huquq va erkinliklarni himoya qilish, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ijodiy va boshqa faoliyat turlarining teng huquqliligi, insonparvarlik, erkinlik, qonun ustuvorligini tan olish kabilarni kiritish mumkin. Huquqiy saviyasiga ya'ni darajasiga ko'ra, odatiy huquqiy ong, ilmiy huquqiy ong, professional (kasbiy) huquqiy onglarga tasniflanadi. Odatiy huquqiy ong bevosita kishilarning hayotiy shart-sharoitlarni, ularning hayotiy tajribalari asosida shakllanadi. Unda ruhiy elementlar, ya'ni hissiyotlar, ehtiroslar muhim rol o'ynaydi. Professional (kasbiy) huquqiy ong huquqshunoslar, ya'ni maxsus yuridik ma'lumot va tayyorgarlikning amaliy tajribasi talab qilinadigan kasb egalari huquqiy ongidir. Huquqshunoslar uchun huquqiy bilimlarga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Ushbu bilimlar fuqarolar darajasidan ancha yuqori bo'lishi, huquq tamoyillari va normalari yuzasidan ma'lumotlarning ko'lam qay darajada teranligi, rasmiylashtirilgan mohiyati bilan ajralib turishi, eng muhimi ular haqiqatan ham shu bilim va ko'nikmakarni amaliyotda

qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Professional huquqshunoslar ongi, siyosiy huquqiy qarashlar, bilimlar his-tuyg'ular, qadriyatlar va huquqiy ongning boshqa tarkibiy qismlarini tashkil qiluvchi tizmlari sifatida namoyon bo'ladi.[3]

Ilmiy huquqiy ong huquqni tizimga solib, nazariy o'zlashtirishda ifodalanuvchi g'oyalar, konsepsiyalar, qarashlardan iborat. Bunday huquqiy ongga ega shaxslar sifatida yuridik yo'nalishdagi ilmiy tadqiqot institutlari, oliy yuridik o'quv yurtlari tizimida faoliyat ko'rsatuvchi huquqshunos olimlarni ko'rsatib o'tish mumkin. Huquqiy ongning funksiyalari deganda, shaxsni huquqiy doirada ijtimoiy faol yurish-turishiga ta'sir etuvchi asosiy yo'nalishlar tushuniladi. Huquqiy ong funksiyalari tushunchasini uning subyekti faoliyati natijasida yuzaga keladigan tizimlashgan g'oyalar sifatida ta'riflash mumkin.

Huquqiy ongning huquqiy tartibga solish mexanizmdagi maqsadlariga ko'ra uning funksiyalarini quyidagicha tasniflash mumkin: rag'batlantiruvchi funksiyasi, ijtimoiy nazorat funksiyasi, tarbiyaviy funksiyasi, bashorat qilish funksiyasi va boshqalar. Muallif qo'shimcha tarzda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning zarur sharti ekanligini ta'kidlab o'tmoqchi. Misol uchun: huquqiy tarbiya – bu jamiyat a'zolarining yurish-turish madaniyatiga va ongiga huquq haqidagi bilimlarni doimiy ravishda maqsadga muvofiq ta'sir etish orqali singdirib berish jarayonidir. Huquqiy tarbiya - bu huquqiy tajriba almashish bo'yicha davlat, jamoat tashkilotlari, alohida fuqarolarning bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyati huquqiy normalariga rioya qilish, ularni bajarish va bu normalardan foydalanishni ta'minlovchi muayyan ijobiy tasavvurlar, qarashlar, qadriyatlarni tushunish yo'l-yo'riqlarni shakllantirish maqsadida shaxs ongi va xulq-atvoriga doimiy ta'sir o'tkazib borishdir. Huquqiy targ'ibot, huquqiy ta'lim, yuridik amaliyot va o'zini o'zi tarbiyalash huquqiy tarbiya vositalariga kiradi. Huquqiy ta'sir mexanizmining tarkibiy elementi bo'lgan huquqiy tarbiyaga, shuningdek, huquqiy munosabatlarda subyektlarning axloqi va huquqiy ongiga ta'sir qiluvchi vosita sifatida ham qarash mumkin.[1]

Muallif yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha vositalarni qo'llash asosida huquq haqidagi axborotlarni yetkazish, qabul qilish, o'zgartirish va undan foydalanish hamda uni amalda ro'yobga chiqarishni, ko'zda tutuvchi huquqiy xabardorlikni amalga oshirish masalalari yotadi. Huquqiy tarbiya bevosita huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi va o'zgarishida muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Huquqiy tarbiya huquqiy bilimlarni yoyish, to'g'ri xulqning muhimligi va qimmatini, ularni qabul qilish va keyinchalik o'zlashtirib olish maqsadida shaxs va jamiyat hayotidagi qonuniylik va boshqa huquqiy holatlardan iboratdir. Huquqiy faoliyatni qadriyat sifatidagi anglanishi ta'siri ostida shaxsning muayyan harakat tarziga moyilligi yuzaga keladi. Binobarin, huquqiy ong nafaqat yuridik voqelikni, odamlarning huquq sohasidagi xulq-atvorini ifodalaydi, balki xulq-atvorni tartibga solishda, shuningdek, ijtimoiy hayotning obyektiv jihatdan huquqiy me'yorlashga muhtoj bo'lgan munosabatlarini belgilashda ham ishtirok qiladi.[5] Shu ma'noda huquqiy ong huquqning g'oyaviy manbayidir. Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma'rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Fuqarolarning huquqiy

ongini shakllantirish huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashning zaruriy talabidir.

Huquqshunoslikda huquqiy ong, huquqiy tarbiya va huquqiy madaniyat kategoriyalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Ushbu tushunchalar bir-birini to'ldiradi va o'zaro chambarchas bog'liqdir. Huquqiy madaniyat huquqiy ong va huquqiy tarbiyaning mahsuli. Huquqiy madaniyat' tushunchasiga tavsif berishdan oldin madaniyat iborasining mazmun va mohiyatini tushunib olish maqsadga muvofiqdir, chunki huquqiy madaniyat huquq va madaniyat kabi tushunchalarning birlashmasi natijasida yuzaga kelgan va shakllangan. Madaniyatning umumiy ta'rifiga nazar tashlasak, bugungi kunda ijtimoiy fanlar doirasida madaniyat' tushunchasi turli-tuman, qarama-qarshi talqin va fikrlarga boy bo'lgan boshqa ijtimoiy hodisani topish qiyin. Huquqiy madaniyat jamiyat va shaxsning huquqiy holati timsolida qabul qilinishi mumkin bo'lgan alohida ijtimoiy hodisadir. Huquqiy madaniyat nazariyasiga oid barcha muammolar atroflicha o'rganilishi zarur. Shu bilan birga, har bir muayyan holatda madaniyatning turlicha ko'rinishlarini tushunishdan qat'iy belgilanadigan u yoki bu jihati ustun bo'ladi.[3] Huquqiy hayotda, ma'rifatparvarlikning shakllanishini ta'minlashda, inson omilini oshirish nuqtayi nazaridan yondashilganda, avvalambor, huquqiy madaniyatning mazmuniga e'tibor qaratish zarurligi namoyon bo'ladi. Huquqiy madaniyat deganimizda, avvalambor, jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, xalqning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo'lishi tushuniladi. Huquqiy madaniyat shartli ravishda jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatiga ajratiladi.

O'zbekiston qonunlarida xalqaro huquqning jahonda tan olingan prinsiplari va normalari o'z ifodasini topdi va mustahkamlandi. Ular rivojlangan mamlakatlar huquqiy tizimining ilg'or yutuqlarini davom ettirdi, qadimiy mamlakatimizning tarixiy-huquqiy tajribasini qamrab oldi. Huquq huquqiy madaniyatning eng birinchi va asosiy tarkibiy qismi. Qonunlarda, davlat-huquqiy tuzilishida, huquqiy tartibga solish va huquqiy madaniyat institutlari hamda mexanizmlarida ko'z o'ngimizda yuz berayotgan chuqur o'zgarishlar, huquqiy rivojlanishning olamshumul, strategik istiqbollari va maqsadlari to'g'risida o'ylash, mamlakatimizda yuz berayotgan huquqiy islohotlarni jahondagi [1] huquqiy rivojlanish jarayoni bilan moslashtirish, unda O'zbekistonning o'rni hamda ushbu o'ringa mos islohotchilik yo'nalishlari va maqsadlarini aniqlash zarur. Huquqiy madaniyat betakror ijtimoiy voqelikdir. Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston o'z taraqqiyotining butun asosi bo'lmish huquqiy madaniyatni qaytadan tiklamoqda. Xalqimizning teran ma'naviy-huquqiy merosi, uning boy tabiiy va ashyoviy imkoniyatlari, mustahkamlanib borayotgan xalqaro aloqalari huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib bermoqda. Yuksak huquqiy madaniyatga asoslangan demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan prinsiplari bor. Tenglik, erkinlik, birodarlik, xalqlar va millatlararo do'stlik, insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirishi, ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat asosiy idoralarning saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisob berishi, davlat va jamiyat

boshqaruvida qonun ustunligi, tayinlash yo'li bilan shakllanadigan davlat idoralarining saylovchi tashkilotlar oldidagi javobgarligi va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Jahonning ma'rifiy rivojlangan mamlakatlari e'tirof etgan huquqiy madaniyat va davlat suverenitet, demokratiya va xalqaro huquqning ustunligi kabi umumbashariy qadriyatlar O'zbekiston davlatchilik manfaatlariga, xalqning o'ziga xosligiga, uning milliy an'ana va urf-odatlariga to'la mos keladi. Huquqiy madaniyat O'zbekistonda Konstitutsiya va qonunlar bilangina emas, balki xalqning o'z ongi, uning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashi va huquqiy tajribasi, mehr-shafqati bilan mustahkamlanadi. "Mustaqil O'zbekistonning kuch-qudrat manbai xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Huquqiy madaniyatning darajasi huquqiy tizimning rivojlanganlik darajasi, davlat va jamiyat institutlarining xalqchilligi, aholining bilim darajasi huquqiy ongi va jamiyatdagi huquqiy mafkura bilan uzviy aloqadorlikdadir [2].

Xalqimizning huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksalib borish bilan bir qatorda, yoshlarimizning ham huquqiy ong va huquqiy madaniyat saloxiyatini oshirish maqsadida bir qancha loyihalar ishlab chiqilgan. Ulardan biri, yoshlarga o'z huquqlarini himoya qilishning amaliy mexanizmlarini o'rgatish maqsadida "Street law" (Ko'cha huquqi — oddiy huquq) loyahasini keng joriy qilish bo'yicha quyidagi tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish:

- huquqshunoslikka ixtisoslashtirilgan oliy ta'lim muassasalari talabalari, yuridik kollejlar o'quvchilari, nodavlat tashkilotlar vakillaridan iborat ko'ngillilar (volonter) guruhini shakllantirish;
- "Street law" loyihasi amalga oshirilishini metodik ta'minlash choralarini ishlab chiqish;
- ko'ngillilar guruhlar uchun interaktiv mashg'ulotlar olib borish metodikasi bo'yicha treninglar o'tkazish;
- ko'ngillilar tomonidan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari hamda umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun mashg'ulotlar o'tkazish.[5]

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishdagi mavjud muammo va kamchiliklar "Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan g'oya ostida Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasini (keyingi o'rinlarda — Konsepsiya) qabul qilish va amalga oshirishni taqozo etmoqda. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklariga hurmat munosabatini shakllantirishga, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda fuqarolarning huquqiy savodxonligi darajasini oshirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolinmoqda.[4]

"Yuksak huquqiy madaniyat — mamlakat taraqqiyoti kafolati" degan konseptual g'oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak

darajadagi huquqiy ongga ega bo'lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo'llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ'ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilansin. Belgilab qo'yilsinki, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish "shaxs — oila — mahalla — ta'lim muassasasi — tashkilot — jamiyat" prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi.[5]

Xulosa qilib aytganda, huquqiy ong va huquqiy madaniyatga egalik kishilik jamiyatining barcha darajadagi munosabatlarini qat'iy nazoratga oluvchi va tartibga soluvchi muhim mezondir. Ijtimoiy holati, mansabidan qat'iy nazar fuqarolarning teng maqomda bo'lishi, o'z huquqlaridan foydalanishi, mamlakatimizning siyosiy-ijtimoiy hayotida faol qatnashishini kafolatlovchi mustahkam tizim bu huquqiy ongning amaldagi ifodasi hisoblangan huquqiy madaniyatdir. Binobarin, demokratik davlatimizda erkin va farovon yashash fuqarolarning birligi va birdamligiga chambarchas bog'liq. Birlik va birdamlik esa bir-birini tushunish, mamlakat taraqqiyoti sari birgalikda odimlash, o'zini yurt taqdiriga dahldor deb hisoblash demakdir. Mustaqil O'zbekiston zaminida tug'ilgan, voyaga yetayotgan har bir yoshning huquqiy tarbiyaga ega bo'lishi g'oyat muhim. Ijtimoiy-huquqiy, siyosiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy sohalarida kechayotgan o'zgarish va yangilanishlarga daxldorlik hissi bilan yashash, amaldagi qonun va qonunosti hujjatlarga hurmat, burchga sadoqat kabilarning barchasi aslida huquqiy tarbiya negizida vujudga kelgan huquqiy ong va huquqiy madaniyatning ifodasidir. Huquqiy tarbiya huquqiy ong va huquqiy madaniyatning asosidir. Kishilarning huquqqa, qonunga, odil sudlovga bo'lgan munosabatlarini ifodalaydigan qarashlar yig'indisi hisoblangan huquqiy ong huquqiy madaniyatga chambarchas bog'liq.

Xalqimizga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmun va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunga hurmat ruhini qaror toptirish — demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!" degan hayotiy g'oyani mustahkamlash, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni singdirish borish g'oyalarini targ'ib qilish bo'yicha "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilingan.

Huquqiy tarbiya siyosiy yetuklikka yo'l ochadigan ta'limiy faoliyatning ajralmas qismidir. Inson huquq va erkinlilari ta'minlangan, himoya qilingan hamda kafolatlangan mustaqil O'zbekiston davlatining taqdiriga befarq bo'lmaslik har bir shaxsning fuqarolik burchi. Bu burchni anglash esa yuksak insoniy fazilatlar natijasi o'laroq yuzaga keladigan axloqiy jarayon ifodasidir. Fuqarolarning yuksak huquqiy ongi va huquqiy faolligi ma'rifiy jamiyatda huquq ustuvorligining, huquqiy davlatning poydevoridir. Fuqarolarning huquqiy

ongini shakllantirish – huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashning zaruriy talabidir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. 2009-yil X.T.Odilqoriyev. "Davlat va huquq nazaryasi". Darslik. "Sharq" nashriyoti.
2. 1998-yil U.Tadjixanov. A.Saidov. "Huquqiy madaniyat" 1-tom darslik. Akademiya nashriyoti
3. 2011-yil N.Saburov. Sh.Saydullayev. "Davlat va huquq nazariyasi" darslik TDYI nashriyoti.
4. <https://yandex.ru/search/?text=huquqiy+ong+va+huquqiy+madaniyat+to%27g%27risidagi+qonun&lr=10337&clid=2285101>.
5. <https://lex.uz/ru/docs/-4149765>.